QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ QOŃÍRAT RAYONÍ HÁKIMINIŃ SH E SH I M I

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI QO‘NG‘IROT TUMANI HOKIMINING Q A R O R I

2024-yil 18-iyul | 210-13-185-Q/24 | Qo‘ng‘irot tumani hokimligi

Qo‘ng‘irot tumani mahalliy byudjet daromadlarining 2024-yil boshiga erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi, “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari hamda “Byudjet kodeksi”ga muvofiq **qaror qabul qilaman:**

1. Qo‘ng‘irot tumani hokimining birinchi o‘rinbosari J.Seytmuratovning o‘ziga biriktirilgan Qo‘ng‘irot tumani hokimligining xizmat bobidagi avtotrasport vositasiga ta’mirlash xarajatlari uchun jami 22 000 000 (yigirma ikki million) so‘m miqdorida mablag‘ zarurligi to‘g‘risidagi bildirgisi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qo‘ng‘irot tumani hokimining birinchi o‘rinbosari M.Murtazaev, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (F.Djumaniyazov) bilan birgalikda yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan zarur bo‘lgan mablag‘larni Qo‘ng‘irot tumani mahalliy byudjet daromadlarining 2024-yil boshiga erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan ajratilishini ta’minlasin.

3. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (F.Djumaniyazov) hamda tuman hokimligi bosh hisobchisi (S.Kaldibaev) mazkur farmoyish bilan ajratilayotgan mablag‘larni maqsadli sarflanishini ta’minlasin. Bunda, ajratilgan mablag‘lar hisobiga shartnoma asosida xaridlarni amalga oshirishda tovar (ish, xizmat)lar narxlarining to‘g‘ri shakllanishiga hamda narx-navoni haqiyqiy bozor qiymatidan kelib chiqib belgilanishiga shaxsan javobgar etib belgilansin.

4. Xalq deputatlari Qo‘ng‘irot tumani Kengashining kotibiyati (B.Ualibayeva)ga mazkur qarorni ko‘rib chiqish uchun Xalq deputatlari Qo‘ng‘irot tumani Kengashining navbatdagi sessiyasi kun tartibiga kiritish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Murtazaev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **B.Madaminov**